

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA IJTIMOIIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy kompetensiyani rivojlantirishning mazmun mohiyati, tashkil etish shakllari va mexanizmlari yoritib berilgan. O'quvchilardagi ijtimoiy faollikni tarbiyalash orqali kelajak tarbiyachilarining o'zlarini salohiyatini oshirish, ularning jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lib, hayotga ko'zlagan maqsadlariga etishishlarida amalga oshirishlari kerak vazifalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: faollik, pedagogika, hamkorlik pedagogikasi, ijtimoiy kompetensiya, mexanizm, salohiyat, oila pedagogikasi

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧАЩИХСЯ МЛАДШИХ КЛАССОВ

Аннотация. В статье раскрыты сущность, организационные формы и механизмы развития социальной компетентности учащихся младших классов. Описаны задачи, которые должны выполнять будущие учителя, чтобы повысить свой потенциал, занять свое место в обществе и достичь своих целей в жизни, повышая социальную активность учащихся.

Ключевые слова: деятельность, педагогика, кооперативная педагогика, социальная компетентность, механизм, способность, семейная педагогика.

THEORETICAL FOUNDATIONS OF DEVELOPMENT OF SOCIAL COMPETENCES IN ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS

Annotation. The article reveals the essence, organizational forms and mechanisms for the development of social competence of primary school students. The tasks that future teachers must perform in order to increase their potential, take their place in society and achieve their goals in life, increasing the social activity of students are described.

Key words: activity, pedagogy, cooperative pedagogy, social competence, mechanism, ability, family pedagogy.

Kirish. Bugungi kunda respublikamizda bolalarni konstitutsiyaviy tuzumi, suverenitetini himoya qilish ruhida tarbiyalash, barcha ta'lim muassalarida ularni oila va jamiyatni asrashga o'rgatish bo'yicha tegishli fanlar va mashg'ulotlarni joriy etish, ularning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, ijtimoiy kompetentlikni oshirish hamda iste'dodini qo'llab-quvvatlash, jismoniy va ruhiy rivojlanishiga ko'maklashish, ularni mustaqil hayotga tayyorlash uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Shu bilan birga, umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlashning pedagogik mexanizmlarini yaratishni takomillashtirish zarurati yuzaga keldi. Bu esa o'quvchilardagi faollikni ijtimoiylashuvida dastlabki tayanch vazifasini bajaradi.

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida "... jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish" [2] dolzarb vazifa sifatida belgilab berildi. Bu borada ijtimoiy-gumanitar fanlar mazmunini mardlik va jasorat, milliy tarbiya, vatanparvarlik, fidoiylilik kabi mavzular bilan boyitish va ularni o'quvchilarda shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4307-son qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek yoshlarni mustaqil hayotga dunyoqarashi keng, faol fuqarolar etib

tarbiyalash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-sonli qarorining [3] qabul qilinishi yoshlarni o'z-o'zini rivojlantirishlari uchun keng imkoniyatlar yaratib berdi.

Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasida quyidagi ustuvor chora-tadbirlar rejasini amalga oshirish belgilandi:

- 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida nazarda tutilgan aholi, ayniqsa yoshlar tarbiyasi bilan bog'liq vazifalarni samarali amalga oshirish, ularni tinch-osoyishta hayot uchun zarur tayanch kompetensiyalar bilan ta'minlash;

- tarbiya jarayonida uzluksizlik, uzviylik tamoyillariga tayangan holda, avvalo, onaning homiladorlik davrini to'g'ri tashkil etish, go'daklar va bolalarni ma'naviy tarbiyalash bo'yicha asosiy yo'nalishlarni belgilash;

- yoshlarda Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarni bolalikdan boshlab bosqichmabosqich shakllantirish va boshqalar...

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng hayotimizning barcha sohalarida keng qamrovli islohotlar hamda misli ko'rilmagan o'zgarish va yuksalishlar sodir bo'lmoqda. Ushbu jarayon jamiyatimiz tinchligini yanada mustahkamlaydi hamda xalqimiz farovon hayot kechirishini ta'minlaydi. Mazkur jarayonlarda ta'lim-tarbiya tizimida yosh avlodni tarbiyalash, ularning ongida Vatanga muhabbat, yashab turgan yurtiga mehr-oqibat, uning azaliy qadriyatlarini asrab-avaylash kabi hissiyotlarni tarbiyalash muhim vazifa hisoblanadi. Mamlakatimiz ta'lim tizimidagi islohotlar ta'lim-tarbiya berishni sifat va samaradorligini oshirishga qaratilgandir. Bunda o'quvchi yoshlarga ta'lim-tarbiya berishning kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat standartlarining ishlab chiqilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili. Albatta, ta'lim-tarbiya sohasidagi har bir qadam ilmiy isbot va natijaviylikni talab etadi va yoshlar faolligini oshirish masalasida L.I.Bogovich, L.A.Petrovskaya, M.G.Davletshin, E.G.G'oziyev, G.Q.To'laganova, Z.Kamaletdinova, T.G.Kamilova, S.Nishonova, O.Musurmonova, M.Quranboyevlarning ilmiy ishlari mavzularida yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishda pedagogik-psixologik vazifalari masalalarini ilmiy ishlarida yoritganlar, lekin boshlang'ich sinflardanoq o'quvchilarda ijtimoiy faol shaxs sifatlarini shakllantirish masalalarini hech kim talqin qilmagan. Aytish joizki, bugungi kunda respublikamizning barcha ta'lim muassasalarida o'quvchilar shaxsiga, uning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti bilan bog'liq kelajagiga alohida e'tibor qaratilayotgan ekan. Bu jarayonda har bir o'quvchilardagi faollikni namoyon etuvchi ichki munosabatlarning qay darajada tarkib topayotganligini o'rganish, tahlil qilish va shular asosida tegishli ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy qulay sharoitlarda boshlang'ich sinf o'quvchisi atrofdagi dunyo bilan o'z munosabatlarining yuqori darajasiga erishishi mumkin. U faqat mazmun-mohiyatni o'zida ifoda etishi yoki umuman o'zini ijtimoiy hayotdagi salbiy tendensiyalarning tashuvchisi sifatida ko'rsatishi, o'z-o'zini rivojlantirish imkoniyatini faol ravishda amalga oshirishi yoki ijobiy ijtimoiy mazmunni o'z-o'zidan va qisman namoyon etishi mumkin. Aynan o'qituvchi mazkur yosh davrining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ma'lum sharoitlarni yaratib, o'quvchilarni har tomonlama rivojlantirishga doir bilan tabiiy ravishda shug'ullanishi mumkin.

Zamonaviy boshlang'ich ta'limni rivojlantirishning etakchi tendensiyasi nafaqat o'quvchilarning boshlang'ich bilim, ko'nikma va malakalarni egallashi, eng muhim intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish, balki bola shaxsining umumiy rivojlanishi ta'minlash uchun zarur shartsharoitlarni yaratish, uning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi uchun zarur ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Bugungi kunda zamonaviy texnologiyalar bilan qurollangan ta'lim jarayoni bilan birga o'quvchilar tarbiyasi masalalari ham doim e'tiborda turibdi. Biroq shiddatli zamonamizda bu borada ham ayrim o'zgarishlar yuzaga kelmoqdaki, bu o'qituvchilardan yanada mas'uliyatli bo'lishni talab qilmoqda. Shuning uchun boshlang'ich sinfdanoq o'quvchilar ta'lim tarbiyasiga katta e'tibor berib, mas'uliyat bilan yondashib nazariy va amaliy bilimlarini berish kerak.

Ijtimoiy kompetentlikning o'ziga xos xususiyati quyidagilardan iborat:

- ijtimoiy-madaniy me'yorlarni bilish, ulardan tolerant xulq-atvor modelining namunaviy asosi sifatida foydalanish qobiliyati;
- atrof-muhit bilan o'zaro munosabatlarda o'z his-tuyg'ulari, emotsiyalarini tushunish, ularni ijtimoiy maqbul hamda mos shaklda ifoda etish qobiliyati;
- o'zining individualligi va qadr-qimmatini, shuningdek, boshqa insonlar shaxsining qadr-qimmatini anglash;
- atrof-muhit bilan o'zaro munosabatlarda yuzaga keladigan odatiy muammoli vaziyatlarni anglay olish qobiliyati, konstruktiv echimlarni izlashga intilish;
- umumijtimoiy va shaxsiy tajribani umumlashtirish qobiliyati.

Bolalarda ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirishni rivojlanishning faoliyatli modeli sifatida tushunish maqsadga muvofiq. Bunda muayyan vaziyatda ongli va mohirona xatti-harakatlarni namoyon etgan bolalarning bilim va tajribalariga urg'u beriladi, bu esa uning atrof-muhit bilan munosabatlar tizimiga qanday ta'sir qilishini aniqlashga imkon beradi. Ijtimoiy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish shuni nazarda tutadiki, insonning o'zi va boshqalar (o'zi, boshqalar, ijtimoiy-tarixiy) haqidagi umumlashtirilgan psixologik bilimlar tajribasi asosida har qanday muammoni samarali hal etishi mumkin. Ijtimoiy kompetensiyaning yuqori darajasi nafaqat boshqa kishining tajribasini ko'chirish, ma'lum qoidalar, stereotiplar, munosabatlarga rioya qilish, balki turli vaziyat va sharoitlarda bilim va malakalardan etarli darajada foydalanishni anglatadi.

Maktab ijtimoiy muassasa sifatida quyidagi vazifalarni amalga oshirishi lozim:

- Atrof-muhit bilan o'zaro munosabatlarning me'yorlari, tamoyillari va usullari to'g'risida ma'lumot berish va ularga nisbatan shaxsiy munosabatni shakllantirish;
- mavjud tajriba, bilim, qadriyatli yo'nalishlar, shuningdek, shaxsga oid sifatlar va kommunikativ malakalarini rivojlantirishga asoslangan holda, shaxsning muammolarni hal qilishga qaratilgan tashqi va ichki faoliyati samaradorligini ta'minlash;
- hayotda o'z o'rnini topish, uni ongli tarzda loyihalashtirish - mustaqil hayotga tayyorlashda aniq mo'ljalni olishga o'rgatish.

Maktablarda o'quvchining ijtimoiy kompetensiyaviy qobiliyatini rivojlantirishni tadqiq qilishda muayyan savollarga javob qaytarish ishini ilmiy pedagogik jihatdan to'g'ri hal qilishga yordam beradi. Xususan, tayanch tushunchalari sifatida:

- namoyon bo'ladigan kompetensiya, ijtimoiy, maktablarida o'quvchilarning ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish kabi tushuncha va iboralarning pedagogik talqinini yoritish;
- kompetensiya, hamda rivojlantirish tushunchalarining pedagogik psixologik tavsifini bayon etish;
- ijtimoiy kompetensiya negizida namoyon bo'ladigan sifatlarni aniqlash; rivojlantirishda muvaffaqiyatga erishishni ta'minlovchi omillarni inobatga olish;
- maktabda o'quvchilarning ijtimoiy kompetensiya rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etuvchi pedagogik shart-sharoitlarni o'rganish;
- maktabda o'quvchilarning ijtimoiy kompetensiya rivojlantirishga doir maxsus metodikani oqilona shakllantirish va uni amaliyotga samarali tatbiq etish;
- maktabdalarida o'quvchilarning ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishga doir maxsus metodikaning samaradorligini tahlil qilish.

Xulosa qilib aytganda maktabda ta'lim-tarbiyaviy jarayonni amalga oshirishdagi izchillik o'quvchi shaxsini rivojlantirishni amalga oshirishda muhim omil bo'lib hisoblanadi.

Shu o'rinda maktabgacha ta'limi tashkiloti va maktab ishidagi izchillik o'ata ahamiyat kasb etadi. Bu izchillik ta'lim tizimining barcha bo'g'inlari orqali ta'minlanib, izchillikni amalga oshirishning mavjud imkoniyatlari, ta'lim tizimi va uning tarkibiy va g'oyaviy tuzilishi prinsiplari asosida amalga oshiriladi. Maktab ta'limining maqsad va vazifalari tarbiyaning o'quvchilar yosh xususiyatlari hisobga olingan umumiy maqsad va vazifalaridan kelib chiqib belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi —Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risidagi 187-son Qarori //www.lex.uz

2. Blake PR, Rand DG, Tingley D, Warneken F. 2015. The shadow of the future promotes cooperation in a repeated prisoner's dilemma for children. *Sci Rep.* 5:14559.
3. Block K, Gibbs L, Staiger PK, Gold L, Johnson B, Macfarlane S, Long C, Townsend M. 2012. Growing community: the impact of the Stephanie Alexander Kitchen Garden Program on the social and learning environment in primary schools. *Health Educ Behav.* 39(4):419-32.
4. Cortes Barragan R and Dweck CS. 2014. Rethinking natural altruism: simple reciprocal interactions trigger children's benevolence. *Proc Natl Acad Sci U S A.* 111(48):17071-4.
5. Domberg A, Köymen B, Tomasello M. 2018. Children's reasoning with peers in cooperative and competitive contexts. *Br J Dev Psychol.* 36(1):64-77.
6. Flook L., Goldberg S.B., Pinger L., and Davidson R.J. 2015. Promoting prosocial behavior and self-regulatory skills in preschool children through a mindfulness-based Kindness Curriculum. *Dev Psychol.* 51(1):44-51.
7. Legoff DB and Sherman M. 2006. Long-term outcome of social skills intervention based on interactive LEGO play. *Autism.* 10(4):317-29.
8. Ozer EJ. 2007. The effects of school gardens on students and schools: conceptualization and considerations for maximizing healthy development. *Health Educ Behav.* 34(6):846-63.
9. Pellegrini AD, Dupuis D, and Smith PK. 2007. Play in evolution and development. *Developmental Review* 27: 261-276.
10. Pellegrini AD and Smith PK. 2005. *The nature of play: Great apes and humans.* New York: Guilford.